

**YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON TALABALARIDA TASHKILOTCHILIK  
MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA UNING PEDAGOGIK  
IMKONIYATLARI**

Djabborov Ma’sud Bahriddinovich,

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti, “Pedagogika” kafedrası o‘qituvchisi

Tel.: + 998 90 320 27 26

e-mail: masuddjabborov892@gmail.com

**DJABBOROV M.B. YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTON TALABALARIDA  
TASHKILOTCHILIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA UNING PEDAGOGIK  
IMKONIYATLARI**

Maqolada madaniyat, madaniyatning turlari, vazifalari, talabalarning tashkilotchilik madaniyatini shakllantirish metodikasi ko‘rsatib berilgan.

**Tayanch so‘z va tushunchalar:** madaniyat, moddiy madaniyat, ma’naviy madaniyat, madaniyatning asosiy vazifalari, tashkilot madaniyati, tashkiliy madaniyat, o‘qituvchining tashkiliy madaniyati.

**ДЖАББОРОВ М.Б. ФОРМИРОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ И ЕЕ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ У СТУДЕНТОВ РЕФОРМИРУЮЩЕГО  
УЗБЕКИСТАНА**

В статье описаны культура, виды культуры, задачи, методы формирования организационной культуры студентов.

**Ключевые слова и понятия:** культура, материальная культура, духовная культура, основные задачи культуры, организационная культура, организационная культура, организационная культура учителя.

**DJABBOROV M.B. FORMATION OF ORGANIZATIONAL CULTURE AND ITS  
PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES IN THE STUDENTS OF REFORMING  
UZBEKISTAN**

The article describes culture, types of culture, tasks, methods of forming the organizational culture of students.

**Key words and concepts:** culture, material culture, spiritual culture, main tasks of culture, organizational culture, organizational culture, teacher’s organizational culture.

## Kirish

Respublikamizdagi o‘ziga xos ijtimoiy rivojlanish oliy ta’lim va professional ta’lim oldiga talabalarning tashkilotchilik madaniyatini shakllantirish va ijtimoiy hayotning turli sohalarida tashkilotchilik vazifalarini bajarishga tayyorlash vazifasini ko‘ndalang qo‘yadi.

Tashkilotchilik madaniyati – bu shaxsning muhim ijtimoiy tavsifining namoyon bo‘lish shakli bo‘lib, ijtimoiy faollikni o‘zida aks ettiradi.

Tashkilotchilik madaniyatining mohiyati va o‘ziga xosliklari bir tomondan, tashkilotchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar, amaliy faoliyat jarayonida to‘planadigan tashkilotchilikka doir sifatlarni talab etuvchi tashkilotchilik faoliyatiga doir xilma-xil bilimlarni talabalar tomonidan ongli tarzda o‘zlashtirilishiga imkon beradi. Ikkinchi tomondan – shaxs va jamoa uchun zarur ijtimoiy qadriyatli yo‘nalganlikka ega amaliy faoliyatda mazkur tajribalarni amalga oshirishga yordam beradi. Ma’lumki, tashkilotchilik madaniyati – bu murakkab jarayon bo‘lib, talabalarning umumiy maqsadlariga erishish, jamoa oldida turgan vazifalarning o‘zaro muvofiqligiga doir birgalikdagi faoliyat jarayonida kursdoshlarga faol ta’sirni namoyon etadigan talabalarning jamoadagi faoliyatli nuqtai nazarini ta’minlaydigan fazilatlar yig‘indisidir.

Ko‘pgina tadqiqotchi olimlar o‘spirinlarda tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganishgan. Olimlarning tadqiqotlarini tahlil qilib chiqar ekanmiz, ular tashkilotchilikni «lider»likning ilk bosqichi sifatida e’tirof etadilar.

Psixolog *V.D. Parigin*, *R.S.Nemov*larning fikricha tashkilotchi – “lider” bo‘lishi kerak, “Lider” - kuchli tashabbuskor va tashkilotchidir deydi. Olim o‘spirin tashkilotchiga qo‘yiladigan bir qator talablarni sanab o‘tadi:

Bular:

- aniq bir maqsad sari intiladigan;
- talabalar shaxsidagi zaruriy o‘zgarishlarni biladigan;
- do‘stlarining ichki kechinmalari bilan o‘rtoklasha oladigan;
- ularga doimo «boshqaruvchi» emas, «do‘stona» ko‘z bilan karay oladigan;
- doimo ularning muammolari va qiziqishlari bilan o‘rtoqlashish kerak, deb aytadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlardan ko‘rinadiki o‘spirinlik davrida sinf jamoasining o‘z a’zolariga ta’siri kuchli bo‘ladi. Ularda maktab muhiti xususan, sinf jamoasi, rasmiy va norasmiy tengqur liderlar kuchli ta’sir qiladi.

L.I.Umanskiy tashkilotchilik qobiliyatini o‘zaro uzviy bog‘liq quyidagi qismlardan iboratligini ta’kidlaydi:

1. Tashkilotchilik tuyg‘usi – psixologik topkirlilik, kashfiyotchilik, odob-nazokatda o‘z ifodasini topadi.
2. Tengdoshlariga emotsional-irodaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyati-muammolar yechimiga jalb qilish, ularning kuch-g‘ayratini birlashtirish.
3. Tashkilotchilik faoliyatiga moyillik – emotsional his-tuyg‘u, faollik ko‘rsatish, qat’iy qiziqish.

*L.I.Umansikiyning fikrini tahlil qiladigan bo'lsak, namunali tashkilotchi o'spirinda:*

1. Axloqiy xislatlar – jamoatchilik, tashabbuskorlik, faollik, mexnatsevarlik.
2. Irodaviy xislatlar – matonat, mustakillik, intizomlilik.
3. Emotsional xislatlar – tetiklik, o'z kuchiga ishonch, optimizm kabi xislatlarga ega bo'lishi kerak, - deydi.

Muallif tashkilotchilik qobiliyatlari tizimini yaratgan. Uning fikricha, tashkilotchilik madaniyatiga ega bo'lgan shaxslar quyidagi fazilatlariga ega bo'lishi kerak:


- shaxsning yo'nalganligi;
- shaxsning xilma-xil faoliyat turlariga tayyorligi;
- umumiy xususiyatlar (kirishimlilik, rivojlanishning umumiy darajasi, amaliy aql, kuzatuvchanlik, faollik, tashabbuskorlik, qat'iylik, tashkilotchilik, o'z-o'zini boshqara olishi);
- maxsus xususiyatlar (tashkilotchilik hissi, emotsional-irodaviy ta'sir etish, taoabchanlik faoliyatiga moslik);
- shaxsiy-individual xususiyatlar.

Tadqiqotchilar shaxsni o'z-o'zini tarbiyalashida, tarbiyalanuvchining muhitga munosabatini o'rganishganida shu narsa ma'lum bo'ldiki, shaxsdagi mustaqil faollik, tashabbuskorlik muhim ahamiyat kasb etishi yaqqol ko'rindi.

Mustaqil faollik va tashabbuskorlik doimo oldinga intilib, o'z kamchiliklarini o'zlari bartaraf etishlari uchun zamin hozirlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'spirin quyidagi xususiyatlarga ega bo'lsagina, namunali tashkilotchi bo'la oladi, deyishimiz mumkin:

- muloqotga tez kirisha oladigan;
- jamoat ishlari bilan shug'ullana oladigan;
- o'z so'zida tura oladigan;
- yangi jamoaga tez moslasha oladigan;
- o'zi yoki o'rtoqlari bilan kechalar uyushtira oladigan;
- o'z fikrini erkin bayon eta oladigan;
- boshlagan kishini oxirigacha yetkaza oladigan;
- o'z-o'ziga ishona oladigan;
- do'stlarining ko'p bo'lishiga ishongan;
- o'rtoqlari fikri bilan o'rtoqlasha oladigan;
- o'z-o'zini tug'ri anglay oladigan;
- faol o'qishga harakat kila oladigan;
- hammaning e'tiborida bo'lishga intiladigan;
- o'z fikrini boshqalar tomonidan qabul qilinishiga ishona oladigan;
- notanish davralarda o'zini tuta oladigan.



2.1-rasm. Tashkilotchilik madaniyatini shakllantirishga doir fazilatlar (N.N.Djamilova tadqiqotlari asosida)

Intizomlilik – bu o'z-o'zini tuta bilish, ichki tashkillanganlik, javobgarlikni his qilish, shaxsiy maqsadlari va ijtimoiy ustanovkalarga bo'ysunishga tayyorlik.

Intizomlilik shaxs fazilati sifatida ijtimoiy xulq-atvor normalarini istisnosiz bajarish, tartiblarga odatlanish, qonunlarga rioya qilish, shaxsiy qiziqishlarini jamoatchilik qarashlariga

bo‘ysundirish kabilarda namoyon bo‘ladi. U oila va jamiyatda muvozanatni, xilma-xil faoliyat turlaridagi odamlarning harakatini qo‘llab-quvvatlaydi.

Mustaqillik – kattalarning maslahat va takliflari asosida faoliyat (o‘quv, mehnat, o‘yin, badiiy)ning xilma-xil turlarini amalga oshirish qobiliyati.

Mustaqillik shaxsning ichki pozitsiyasi, begonalarning yordamisiz faoliyatini takomillashtirish uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarga muvofiqlik tizimini ochib beradi. Mustaqil faoliyatni amalga oshirish uchun umummehnat ko‘nikmalari (maqsad qo‘yish, rejalashtirish, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z faoliyatini korreksiyalash, natijalarini aniqlash, bajarilganlarini baholash, mustaqil faoliyat jarayonida empatiyani namoyon eta olish, axloqiy konfliktlani hal etish)ga rioya qilish zarur.

Mustaqillik mehnat, jamoaviy va ijodiy faoliyatda tarbiyalanadi.

Mustaqillik – bu tafakkur jarayoni sharti, aqlning xislatidir. (P.P. Blonskiy, A.A. Smirnov, N.A. Menchinskaya, M.P. Shardakov, A.M. Matyushkin, E.Z. Usmonova va boshqalar).

Mustaqillik – bu shaxs xislati bo‘lib, masalani yechishning aniq usulini tanlash va yechishni ta‘minlaydi. (A.N. Leontyev, A.Y. Ponomarev, A.A. Lyublinskaya, V.M. Karimova, R.I. Sunnatova, Q.P. Husanboyeva va boshqalar).

Mustaqillik – bu aqliy faoliyat usullarini egallash natijasi va shartidir. (D.N. Bogoyavlenskiy, YE.N. Kabanov-Meller, V.I. Reshetnikov va boshqalar).

Yana bir guruh olimlar(M.G. Yaroshevskiy, A.YA Ponomarev, O.K. Tixomirov, Z.T. Nishonova va boshqalar)ning ta‘kidlashicha, mustaqillik – shaxs ijodiy faoliyati shartidir.

Mustaqillik – yangi muammoni, yangi masalani ko‘ra olish va uni o‘z kuchi bilan yechish ko‘nikmasidir (V.V. Davidov, M.A. Danilov, A.M. Matyushkin, A.V. Brushlinskiy, D.B. Bogoyavlenskaya, E.G‘. G‘oziyev).

Ishchanlik – bu nimanidir qilmoq, mehnat qilmoq, qo‘l mehnati, tana kuch va ko‘nikmalari orqali nimanidar ishlab chiqmoq, ba‘zan esa, aqliy, ya‘ni nimanidir mashq qilmoq, shug‘ullanmoq, nimanidir bajarishga harakat qilmoq.

Tashabbuskorlik – bu shaxsning mustaqil ijtimoiy tashabbuskorlik, faollikka qobiliyatligi. Mazku ko‘nikma muhim vazifalarni belgilab beradi, ularning borliqqa, ya‘ni o‘quv, mehant, badiiy-ijodiy faoliyatga muvofiqligini aniqlab beradi. Bu jamoaviy ish uchun birinchi qadam, bu faoliyatning yangi shakllari uchun ichki ehtiyoj. Shaxsiy fazilat sifatida tashabbuskorlik maktabga ta‘lim yoshidan boshlab tarbiyalana boylaydi va barcha yosh davrlarining o‘ziga xos xususiyatlari bilan birgalikda rivojlanadi. O‘smirlik va o‘spirinlik yoshida tashabbuskorlik mustaqil fikrlash va mustaqil hatti-harakat, shu bilan birga ijodiy faoliyatga bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi, real shaxsiy ehtiyojlar asosida shakllanadi.

Ota-onalar va pedagoglarning avtoritar tarbiya metodlaridan foydalanishi tashabbuskorlikni shakllantirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Maqsadga qaratilganlik – bu biror muvafaqqiyatga erishishga intilish. Bu xilma-xil faoliyat turlari (mehnat, o‘quv, o‘yin va boshqalar)ni bajarishda maqsadni qo‘ya olish va unga erishish metod va vositalarini belgilay olish ko‘nikmasi.

Maqsadga yo'nalgan inson har doim muvafaqqiyatga erisha olishiga ishonadi, boshqalarga namuna sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur sanab o'tilgan fazilatlar, bo'lajak mutaxassislarning takshilotchilik funksiyalarini bajarishlariga yaxlitlikda ta'sir etadi va o'zaro bir-biri bilan aloqador.

Shu bilan birgalikda biz tadqiqotimiz jarayonida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi bilan tashkilotchilik fazilatlarini o'zaro aloqadorlikda o'rgandik.

Motivatsion xislatlar insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi tanlagan kasbiga bo'lgan ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi. Motivatsion xislatlarning salmoqli qismini rag'batlantiruvchi g'oyalar tashkil etadi. U inson hayotining muayyan bosqichida shakllanadi va yashaydigan joy bilan bog'liq bo'ladi (maktab talabasi, talaba, o'qituvchi faoliyati rag'batli).

Ta'lim olish motivatsiyasi insonni bilim olish va unga ongli yondashish, bilish usullarini egallash, faol bo'lishga undovchi maqsadlar tizimi, ehtiyojlar va motivlarni qamrab oladi.

Ko'pchilik holatlarda motivatsiya o'qituvchilar tomonidan yaxlit tizim emas, balki elementlar ketma-ketligi sifatida qabul qilinadi. Bunday holatlarda alohida motivatsiyalar, qiziqishlar yuzaga chiqadi va albatta quyidagi maqsadlar qo'yiladi: o'z faniga va tanlagan kasbiga qiziqishning shakllanishi, yangi mazmun va texnika-texnologiyani o'rganishga mas'uliyatli yondashuvni tarbiyalash.

Biroq, bunday maqsadlarga erishish yaxlit motivatsiyasining shakllanishiga emas, balki uning bo'laklarga bo'linishiga olib keladi, ya'ni, talabalarda alohida fanlarni o'rganish motivatsiyasi uyg'onadi, lekin umumiy bilim olish motivatsiyasi rivojlanmay qoladi.

Intellektual salohiyat quyidagilar bilan tavsiflanadi:

fikrlash turlari (ijodiy, nazariy va amaliy bilish kabilar);

fikrlash metodi (obrazli va ko'rgazmali fikrlash, fikrning asoslanganligi);

intellektual sifatlar (zehnlilik, moslashuvchanlik, tanqidiy fikrlash, aqliy (fikriy) harakat qila olish va hokazolar);

bilish jarayonlari (diqqat, tasavvur, xotira, idrok), fikrlash jarayonlari (tahlil, sintez, tizimlashtirish, rasmiylashtirish, aniqlashtirish, talqin qilish va boshqalar), bilish ko'nikmalari (masalani qo'ya olish, uni tahlil qilib muammoni shakllantirish, farazni olg'a surish, uni asoslash, xulosalar chiqarish, bilimlarni qo'llay olish va hokazolar);

bilimlarni o'zlashtirish ko'nikmalari (asosiy bilimni ajratib olish, rejalashtirish, maqsadni belgilash, bir maromda o'qish va yoza olish, asosiy o'rinlarni qayd etish (konspektlashtirish) va boshqalar);

fanlardan tashqari o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalar (axloq va umuminsoniy qadriyatlar to'g'risidagi tasavvurlari, hayotiy qarashlari va hokazolar);

fanlar borasidagi gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, matematik, tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va maxsus bilim, ko'nikma va malakalarining yaxlit tizimini egallaganlik.

Barcha rasmiy hujjatlar asosida o'qituvchi axborot va ma'lumotlarni uzatishga, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga intiladi. Didaktik tamoyillar ham o'z mohiyatiga ko'ra shu maqsadlarga xizmat qiladi.

Irodaviy sifatlar maqsadning ongli ravishda belgilanishi bilan tavsiflanadi. Irodali insonga maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to'siqlarni, jismoniy va aqliy zo'riqishlarni yenga olishlik, o'zini tuta bilishlik va tashabbuskorlik xislatlari xosdir.

Hissiy sifatlar nafaqat hissiyotlar balki o'z-o'zini baholash sifatleri bilan ham tavsiflanadi. Shu sababli pedagogik maqsadlarni belgilashda hissiy sifatleri shakllantirish va rivojlantirishga e'tibor berish juda muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni:

o'z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalarini shakllantirishni e'tiborga olish;

o'zining aniq hislari (qahr, g'azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag'rurlik, qo'rqish, ko'ngilchanlik, muhabbat va boshqalar)ni boshqarishga o'rgatish;

- o'z hissiy holatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishga o'rgatish.

Amaliy ko'nikmalar o'zida psixologik, pedagogik, metodik va texnik-texnologik qobiliyatlar, amallar, individning faoliyat va muloqotning turli sohalaridagi ko'nikmalarini mujassamlashtiradi.

O'z-o'zini boshqara olishi maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik; vijdonlilik, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o'z xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borish, kelajakka ishonch; o'z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turish va boshqara olish kabilar bilan tavsiflanadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkinki, tashkilotchilik madaniyatiga ega bo'lgan bo'lajak mutaxassislarda quyidagi malaklar shakllangan bo'lishi lozim:

1. Jamoani uyushtira olish, topshiriq va vazifalarni bajarishda bolalarni faollashtira bilish.
2. O'z faoliyatini to'g'ri tashkil eta olish, rejalashtirish, vaqtni to'g'ri taqsimlash va vaqtdan unumli foydalanish malakasi.
3. O'z faoliyatini nazorat qilib bori shva tekshira olish.

Xulosa va tavsiyalar. Jamiyatimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganishni, an'analimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, zamonaviy fan texnika yutuqlari bilan qurollangan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bilan uzviy bog'liqdir.

Hozirgi davrda milliy tiklanishdan milliy yuksalish mafkurasi shakllanayotgan jamiyatda ma'naviy-ahloqiy muhit sog'lomlashayotgan, milliy qadriyatlar, inson huquqi va erki tiklanayotgan, ijodiy kuch-quvvati namoyon bo'layotgan bir sharoitda barkamol inson deganda, o'zida ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ahloqiy hislatlar majmuini, mujassamlashtirgan, jamiyatda o'zligini va o'z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma'rifatli, islomiy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, aqlan yetuk, axloqan pok, jismonan sog'lom, xayot go'zalliklarini his eta oladigan erkin, ijodkor shaxs tushuniladi.

Tashkilotchilik madaniyati – bu shaxsning muhim ijtimoiy tavsifining namoyon bo‘lish shakli bo‘lib, ijtimoiy faollikni o‘zida aks ettiradi. Tashkilotchilik madaniyatining mohiyati va o‘ziga xosliklari bir tomondan, tashkilotchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar, amaliy faoliyat jarayonida to‘planadigan tashkilotchilikka doir sifatlarni talab etuvchi tashkilotchilik faolityaiga doir xilma-xil bilimlarni talabalar tomonidan ongli tarzda o‘zlashtirilishiga imkon beradi. Ikkinchi tomondan – shaxs va jamoa uchun zarur ijtimoiy qadriyatli yo‘nalganlikka ega amaliy faoliyatda mazkur tajribalarni amalga oshirishga yordam beradi.

Tashkilotchilik madaniyatini shakllantirishga doir fazilatlarni ikkiga ajratish mumkin: tashkilotchilik fazilatlari va shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari. Tashkilotchilik fazilatlariga: kuzatuvchanlik, ishchanlik, faollik, tashabbuskorlik, qat‘iyatlilik, mustaqillik, maqsadga intiluvchanlik, xushmuomalilik, o‘z-o‘zini tashkil eta olish kiradi. Shaxsning o‘ziga xos xususiyatlariga: amaliy-psixologik akl, pedagogik odob, psixologik qiziquvchanlik, faollik, talabchanlik, o‘z faoliyatiga tanqidiy nuqtai nazardan qarash, tashkilotchilik faoliyatiga moyillik kiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмонов Қ.Х. Ходимларни бошқариш. – Т.: Илм Зиyo, 2005. – 136 б.
2. «Авесто» ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. – Т.: Фан, 2001. – 112 б.
3. Адизова Т.М. Бошқарув мулоқоти психологияси. – Т.: 2000. – 19 б.
4. Ahmadxo‘jayev N.G., Mirdadayev K.M., Qozoqov O.S. Menejment va strategiyani boshqarish. – Т.: Илм Зиyo, 2004. – 144 б.
5. Аллаёров И.А. Дидактические основы активного обучения (на материале изучения управленческих дисциплин): Автореф. дис. ... док.пед.наук. – Т., 1994. – 44 с.
6. Ахлиддинов Р. Умумий ўрта таълимни ташкиллаштиришнинг ташкилий-педагогик асослари (бошқарув жиҳатлари): Пед. фан. номз. ... дисс. – Т.: 1998. – 145 б.
7. Ахлиддинов Р.Ш. Умумий ўрта таълим сифатини бошқаришнинг ижтимоий-педагогик асослари (Кадрлар тайёрлаш миллий дастури материаллари асосида): Педагогика фан.докт. ... дисс. – Т.: 2002. – 338 б.
8. Ахлиддинов Р. Мактабни бошқариш санъати: умумий ўрта таълим сифатини бошқаришнинг ижтимоий-педагогик асослари. – Т.: Фан, 2006. – 303 б.
9. Ахлиддинов Р.Ш. Олдройд Д. ва бошқалар. Таълим бошқаруви муаммолари ечимининг методикаси. – Т., 1999. – Б. 10-70.
10. Ахлиддинов Р.Ш., Олфройд Д ва бошқалар. Ўзбекистонда таълимни бошқариш муаммолар, ечимлар // Таълим тараққиёти. – 2000. - №1. – Б. 5-93.
11. Ахлиддинов Р.Ш. Узлуксиз таълимда педагогик бошқарув масалалари // Узлуксиз таълим. – 2002. - №3. – Б. 3-6.
12. Боймуродов Н. Раҳбар психологияси. – Т.: Янги аср авлоди, 2007. – 328 б.
13. Валижонов Р. Менежмент асослари. – Т.: Шарқ, 2002. – 136 б.